

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

QAHHOR BAXSHI IJODI - XALQIMIZ NOMODDIY MEROSINING XAZINASI

Gulbaxar FAZILOVA,

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti mustaqil izlanuvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290916>

Baxshichilik san‘ati o‘ziga xos qadimiy san‘at turlaridan biri bo‘lib, u insoniyat tafakkuri rivojiga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Shuning uchun ham xalqimizning ko‘hna va betakror san‘ati namunasi bo‘lgan baxshichilik san‘ati YuNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro‘yxatiga kiritildi. Folklor dunyo jamoatchiligining katta qiziqishiga sabab bo‘lishi, uning qadimiy san‘at ekanligidan dalolat beradi [Imomnazarova Sh.1-1].

Adabiyot ham katta yangiliklarni qabul qildi. Ammo mohiyatiga sinchiklab nazar solsak, barcha ...izmlarning ildizi folklorga borib tutashadi. Xalq og‘zaki ijodining jonli eltuvchilari baxshilardir. Baxshilar azaldan so‘z sohiblari, tuyg‘u zargarlari bo‘lgan. Dostonlar qatida vatanparvarlik, do‘stlik, sadoqat, mardlik xislatlarini odamlarga yuqtirishda zamonlar osha ko‘prik bo‘lib xizmat qilib keladi [Oдинаeva N.2-1].

Milliy o‘zlikni anglashda, an‘ana va urf-odatlarni saqlab qolishda insoniyat madaniyatining ajralmas qismi sifatida tan olingan baxshichilik san‘ati atoqli baxshilar, shoirlar, folklorshunos olimlarning fidoyi mehnati bilan rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, bu san‘atning saqlab qolinishi va rivojlanishida bevosita baxshilarning o‘rni katta. O‘zbekiston xalq baxshisi Qahhor baxshi Rahimov ana shunday zabardast ijodkorlardan biri hisoblanadi.

Qahhor baxshi sulolaviy ijodkor. U Dehqonobodlik el suygan Qodir baxshi Rahimovning farzandi. U bolaligidanoq Norxol momoning hikmatlari, hikoyatlari, rivoyatu, afsonalarini momosidan tinglab, otasining do‘mbira sadolari ostida ulg‘ayadi. Norxol momoning ajdodlari, ota-bobosi mohir baxshi bo‘lib o‘tgan. Bu jarayon Qahhor baxshi qalbida shoirlilik va baxshichilik san‘atiga mehr uyg‘otdi.

Qahhor baxshidagi kuchli zehn va qobiliyat Baxshichilik san‘atida biz sulolaviy baxshimiz -deydi Qahhor baxshi. Uning uchun baxshichilik sulolaviy, qondan-qonga o‘tib kelayotgan san‘at hisoblanadi. Baxshining shajarasida birinchi avlodi Berdinazar Aliboy yuzboshi, ikkinchi avlodi Shernazar Berdinazar, uchinchi avlodi Rajab Normurod o‘g‘li, to‘rtinchi avlodi Qodir shoir Rahimov, beshinchi

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

avlodi o‘zi, oltinchi avlodi Ilhom baxshi va Begjon baxshi Rahimovlar turadi.

Folklorshunos olim Abduolim Ergashev Qahhor baxshining otasi Qodir baxshi bilan ishlaydi, uning merosini o‘rganadi. Talabalik yillarida olim Abduqahhor Mo‘minov Qahhor baxshi bilan ishladi. A.Mo‘minov Qahhor baxshidan uchta doston ham aytirib, uning ijrosida yozib olgan.

Baxshining keyingi faoliyatida folklorshunos Abduolim Ergashev tadqiqotlari va bevosita muloqoti baxshining ko‘p dostonlar o‘rganishiga sabab bo‘ldi. Qahhor baxshi bir tomondan doston va termalar ijro etgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan folklorshunos mutaxassislar tomonidan uning ijodi ilmiy tadqiq etila boshlandi. Shuning uchun ha bugungi kunda Qahhor baxshi ijodiy merosiga qiziqish katta. Uning ijrosida dostonlari butun dunyo bo‘ylab kuylab kelinmoqda.

Qahhor baxshi bolaligidan maktab ko‘rgan ijodkor. Uning otasi, taniqli baxshi Qodir Rahimov o‘z davrida Markaziy Osiyo mamlakatlarida taniqli shaxs bo‘lgan. Uning oilasida doimo baxshilar uchrashuvi bo‘lib turgan. Surxondaryo, Qashqadaryo, Turkmanistonlik taniqli baxshilar Qodir baxshi xonadonida muntazam mehmon bo‘lib turib, tonggacha doston va termalar ijro etishgan. Butun qishloq ahli baxshilar ijodidan bahraman bo‘lish uchun ularning xonadonini tark etishmagan. Ayniqsa, bu jarayon Qahhor baxshining to‘laqonli ijodkor sifatida shakllanishiga sabab bo‘lgan. Qahhor baxshining eslashicha, taniqli baxshilarning aytishuvlaridan ruhlanib hech kim bo‘lmaganida u xilvatda otasining do‘mbirasini qo‘liga olib, mehmon baxshilarning eslab qolgan dostonlarini takrorlashga harakat qilib, ularni ijro qilgan. Shu tariqa uning baxshichilikka bo‘lgan qiziqishi ortib, kundan-kunga mustahkamlanib borgan.

Qahhor baxshi yoshligidan doston tinglash va aytishga qiziqishi bo‘lgani sabab, qaysi bir olis qishloqda baxshi doston kuylashini eshitsa, o‘sha joyga borib, doston tinglar edi. Uning eslashicha, bolaligida bir kuni olis qo‘shni qishloqda bir xonadonda to‘y bo‘ladi. To‘yda kurash tashkil etiladi. Kurash o‘tayotgan joy atrofida ikkita o‘tov tikiladi. Bir o‘tovda osh pishiriladi, ikkinchi o‘tovda Umir baxshi tonggacha doston kuylaydi. Yosh Qahhor havo salqin bo‘lishiga qaramay o‘tovning tashqarisidan ichkarida doston kuylayotgan Umir baxshining dostonlarini tinglaydi.

Tongda Qahhor baxshi o‘tov tashqarisida yonboshlab uxlab qoladi. Ichkaridan Umir baxshi va unga hamroqlik qilganlar, muxlislar, to‘y egalari, tashqaridagi muxlislar toza havoga chiqqanlarida Umir baxshining ko‘zi yosh Qahhorga tushadi. Umir baxshi Qahhorni uyg‘otib u bilan gaplashadi.-Sen kimning

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

o'g'lisan? Bu yerda nima qilib o'tiribsan? Nega sovuqda uxladim, deb uni o'tov ichkarisiga olib boradi.

– Men qo'shni qishloqdagi Qodir baxshining o'g'liman, bobo.

– Ha, tanidim. Qodir mening shogirdim. Otang o'ttiz yoshlar atrofida bo'lsayam, u katta baxshi, ko'p doston biladi. Sen ham doston bilasanmi?

– Ha, bobo, men ham dostonlarning parchalar aytib yuribman.

– Qani, meni do'mbiramni ushla. Birorta doston aytchi, deb bolaga do'mbira uzatadi.

Qahhor baxshi o'sha damlarni yaxshi eslab qolgan. Men Umir baxshi do'mbirasi bilan bir nechta dostonlardan parchalar aytdim, hatto Umir baxshi aytgan Go'ro'g'li turkumidagi dostonlardan ham ijro qildim. Shunda, mpen boshqa bir ruhiy dunyoga tushib qolganman, men o'zimni o'sha paytdayoq kelajakda baxshi bo'lishimni anglaganman. Menga Umir baxshi oq fotiha berib, duo qilgan edi, deb eslaydi Qahhor baxshi.

Haqiqatan ham, Qahhor baxshining otasi Qodir baxshi o'z davrining zabardast, otashnafas baxshilaridan biri bo'lib, Sherobod dostonchilik maktabining davomchilaridan bo'lgan. U Umir baxshi Safar o'g'li hamda Rajab baxshi Normurod o'g'liga shogirdlikka tushib, baxshichilik sirlarini o'rgandi [Ramazonov K.3-2].

Yuqoridagilarga ko'ra aytish mumkinki, baxshi yoshligidan katta maktab ko'rgan. Uning zehni o'tkirligi tufayli bir eshitgan doston yoki termani yodlab olarkan. Uning baxshi bo'lib shakllanishida bir tomondan xonadon sohibi, otasi Qodir baxshining ta'siri katta bo'lsa, ikkinchi tomondan u o'z ko'zi bilan bilan ko'rgan, eshitgan o'z davrining taniqli baxshilarining davlarida bo'lgani ijobiy ta'sir qilgan.

Qahhor baxshi otasidan 6 yoshidan do'mbira chertishni o'rgangan. 18 yoshida mustaqil dostonchi bo'lib yetishgan. Repertuarida “Alpomish”, “Kuntug'mish”, “Yodgor”, “Yusuf va Zulayho”, “Rustamxon”, “Boloyim”, “Oysuluv”, “Balogardon”, “Ollanazar”, “Olchinbek”, “Murodxon”, “Sohibqiron”, “Malika ayyor”, “Nurali va semurg”, “Chambil qamali”, “Kelinoy”, “Yozi bilan Zebo” kabi 30 dan ortiq doston hamda 100 ga yaqin termalar mavjud [O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 4-2].

Sherobod baxshilari kuylagan dostonlarda qadimiy asoslar, xalqning etnik urf-odatlarini saqlangani ko'zga tashlanishi bilan birga tarixiy mavzularga ham keng o'rin berilgan ko'rinadi. Sherobod dostonchilik maktabida sozga, ovozga, so'zga e'tibor qilinadi. Yozma adabiyot vakillarini singari qolipga solingan to'rtliklar,

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

matn, she’riy qism- hamma-hammasi juda chiroyli, ravon ijro etiladi [Ramazonov K.5-2].

Sherobod baxshichilik maktabi vakillari “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish”, “Rustamxon”, turkumidagi dostonlarni kuylash bilan birga, o‘zlarining repertuaridagina xos epos namunalari ko‘p bo‘lgan. Surxondaryoda baxshichilik keng rivojlangan bo‘lsa-da, lekin Sherobod dostonchilik maktabi o‘zining alohida o‘rniga ega bo‘lgan [Boborahimov Sh.I. 6-34].

Bu maktab vakillari respublikaning boshqa hududlaridagi baxshilardan do‘mbirani ko‘p va xilma-xil ohanglarda ijro etishi, “Hasanxon” turkumi kam kuylagani holda “Avazxon” va “Nurali” turkumi dostonlarini alohida mehr bilan aytish jihatidan ham ajralib turgan. Go‘ro‘g‘lining nevarasi Nurali haqida 20 tadan ortiq doston fikrimizni asoslaydi. Shuningdek, respublikada hech qaysi maktabning hududiy doirasi Sherobod dostonchilik maktabichalik keng emas.

Qahhor baxshi Sherobod dostonchiligi maktabining davomchilaridana sanaladi. Qahhor baxshi katta maktab yaratdi va uni rivojlantirib kelayotgani. Baxshini bugun dunyo, ayniqsa turkiy davlatlar xalqlari yaxshi taniydi. 1987 yilda respublika baxshi-shoirlar ko‘rik-tanlovida qatnashib, 1-o‘rinni egallagan. 1989- yilda Ozarbayjonda o‘tgan xalqaro bellashuvda ham 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan. 2019- yil Termizda va 2021-yil Nukusda o‘tkazilgan baxshi-shoirlar xalqaro ko‘rik-tanlovida faol ishtirok etib, “O‘zbek dostonchiligining eng yaxshi an‘naviy dostonchisi” mukofotiga loyiq ko‘rilgan [Barotov O‘.7-1].

Dostonchilik xalqimizning qadimiy va noyob, nomoddiy merosi ekan, uning kuchidan doim foydalanishimiz kerak. Insoniyat tafakkuri bugun ham qadimiy nolalar va dastlabki bilimlarga asoslanadi. Insonyat o‘z ma‘naviy ildizini yaxshi anglasagina, kelajakka ishonch bilan qadam qo‘yadi. Bugun san‘atning yangi-yangi yo‘nalishlari rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, lekin dostonchilik o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatib kelmoqda.

Dostonchilik buyuk bir millatning qadriyati, merosi. Xalq og‘zaki ijodida namoyon bo‘layotgan neki bor, u xalqniki. Biz uning ijrochilarimiz. Biz kitobni bir boshdan yodlab olib kuylamaymiz. Kuy ham, so‘zlar ham holatdan kelib chiqib, quyilib keladi. Bunda duo bor, bunda odob-axloq, vatanga muhabbat, yigitning yigitday bo‘lishi, botirning botirday bo‘lishi kerakligi kabi bir qancha qadriyatlar bor [Madieva R.8-1].

Bir so‘z bilan aytganda Qahhor baxshi ijodi - xalqimiz nomoddiy merosining zahirasi hisoblanadi. U yaratgan va dunyo bo‘ylab ijro etib kelayotgan qadimiy

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

dostonlar xalqimizning nomoddiy merosidir. Uni asrab-avaylash, saqlab qolish va kelgusi avlodlarga yetkazish barchamizning burchimiz. Zero, insoniyat tafakkuri qadimiy bilimlarga ham tayanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imomnazarova Sh. Folklor asarlari milliy og‘zaki merosimiz. URL:<https://interonconf.org/index.php/rus/article/view/290>.
2. Odinaeva N. Qo‘rqaman, o‘tgan baxshilar bizdan og‘rinmayaptimikan – Shodmon baxshi Xo‘jamberdiev. URL: <https://oyina.uz/kiril/article/692>.
3. Ramazanov K. Oylab doston aytish yoki davradan chiqib ketish: o‘zbek baxshichiligi qanday rivojlangan? URL:<https://sputniknews.uz/20250104/baxshichilik-tarix-baxshilar-manzil-davlatlar-47098991.html>
4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Base Knowledge of Uzbekistan. URL: <https://qomus.info/encyclopedia/cat-q/qahhor-baxshi-uz/>
5. Ramazanov K. Oylab doston aytish yoki davradan chiqib ketish: o‘zbek baxshichiligi qanday rivojlangan? URL:<https://sputniknews.uz/20250104/baxshichilik-tarix-baxshilar-manzil-davlatlar-47098991.html>
6. Boborahimov Sh.I. Baxshichilik san’ati Surxondaryo tarixida. -T.: “Lesson Press” nashriyoti, 2022.
7. Barotov O‘. Dostonlarda hayot hikmati bor. URL: https://uza.uz/uz/posts/dostonlarda-hayot-hikmati-bor_375506
8. Madieva R Baxshi kuylaydigan dostonlar. URL:<https://yuz.uz/news/baxshi-kuylaydigan-dostonlar>. 20.03.2021-yil.